

## ARAB TILIGA OID NOZIKLIKLAR VA ULARNING QISQACHA TA'RIFI

**Po'latova M.M**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti  
Arab filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada arab tili haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Arab tili tarixi, uning bugungi kundagi o'рни, grammatikasi, leksikasidagi diqqarga sazovor ma'lumotlar jamlangan.

**Kalit so'zlar:** arab tili, nahv, sarf, dunyo tillari, arab tili tarixi, sinonimlar, mufradotlar.

### ABSTRACT

This article provides general information about the Arabic language. Important information on the history of the Arabic language, its place today, grammar, lexicon.

### АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена общая информация об арабском языке. Важная информация по истории арабского языка, его место сегодня, грамматика, лексика.

Arab tili dunyodagi 300 mln. ga yaqin insonlarning so'zlashuv tilidir. Ushbu tilda gapirish yozish, umuman suhbat olib bora olish imkoniyatiga ega bo'lish uchun yana bir necha millionlab ajam insonlar harakat qilishmoqda. Buning sababi esa sirli emas, albatta. Arab tilda so'zlasha olyapsizmi, siz demak , yuqoridagi ko'p millionli xalqqa yaqinlashmoqdasiz. Biznesmenmisiz yoki sayohatchimisiz , Misrga yo'l oldingizmi yoki madaniy shaharga aylangan Dubaygami, yoki Ziyorat maqsadida Saudiyaga bormoqchimisiz, dunyo sahrolarini kezib chiqmoqchidirsiz , balki ? Unda siz o'rgangan arab tili yuqoridagi joylarda sizga , albatta, asqotadi.

Arab dunyosining dunyo sahnasiga chiqayotgani ham arab tilida so'zlashuvchilarga dunyo miqyosida talab ortib borayotganiga sababdir.

Arab tili dunyoda hozirda Nasroniylikdan keyingi o'rinda turadigan ISLOM dinining tili hisoblanadi. Demak, islom dini juda muhim din bo'lib , musulmon yoki musulmon emaslar ushbu dinni turli maqsadda o'rganishlari jarayonida ham arab tiliga to'qnashadilar. Musulmonlar dunyoning hozirda barcha burchaklari va yoqlarida mavjuddir . Shu nuqtai nazardan qaraganda ular bilan aloqa o'rnatish jarayonida ham

arab tiliga qisman duch kelish mumkin. Chunki dunyo musulmonlarining aksariyati arab tilini oz bo'lsa ham tushunishadi.

Arab davlatida yashayotgan arab emas odamlar vaziyat yoki boshqa narsa taqozosi bilan arab tilini o'rganadilar. Bu o'rganishlik ularning mahalliy aholi bilan aloqa o'rnatishlariga yordamchi bo'ladi. Ularning ijtimoiy hayotlariga aralashishlarini osonlashtiradi.

Arab tili so'nggi o'n yilliklarda dunyoni o'ziga qaratmoqda. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra yaqin yillarda iqtisod jihatdan 100% dan ziyodlab ketmoqda. Quvayt, Qatar, KSA va BAA kabi davlatlarga investitsiya kiritishlar o'smoqda. Biznes va ish talabida arab davlatlariga oqib kelayotgan odamlar soni yiliga ortib bormoqda. Yuqoridagi lider davlatlarda biznes qilish havfli emas hisoblanib, o'zaro biznes yaxshi ishonchga aylanib borgani sari bunday aloqalarni ko'p yillarga cho'zish holatlari kuzatilmoqda. Arab davlatlarining dunyodagi yetakchi davlatlar qatoridan allaqachon o'rin olganiga yana bir misol 2022 yilgi Futbol bo'yicha jahon chempionatining Qatar davlatida o'tkazilganligidadir. Garchi bu davlatning o'zligi madaniy qadriyatlari arab va musulmon bo'lmagan va bunday qadriyarlardan xabari bo'lmagan tashrifchilarni hursand qilolmagan bo'lsa ham arablar va arab tiliga ishtiyoqmandlarning sonini ham anchagina orttirdi.

Arab tilining dunyo miqyosidagi ahamiyati ortganligining yorqin isboti-2012 yildan arab tili kuni sifatida 18 dekabrda nishonlanishini aytib o'tsa bo'ladi. Bu sana 1973 yilda Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi arab tilini tashkilotning oltinchi rasmiy tili sifatida qabul qilgankunga to'g'ri keladi.

Xitoy yoki yapon tillari kabi arab yozuvi ham keng leksik va grammatik arxitekturaga ega til hisoblanadi. Hatto eng bilimdon universitet professorlari va din olimlari ham arab lug'ati tarkibidagi har bir so'zni bilishlariga da'vo qilisholmaydi.

Arab tilining tarixiga kelsak, klassik arab tilining ildizlari qadimgi semit tillariga borib taqaladi, deb hisoblaydilar, tarixchi olimlarimiz. Bu mulohaza, albatta, adabiy tilga tegishlidir. Yoshi kamida 1500 yil deb hisoblangan arab tiliga oid yozuvlar Suriyada ilk marta 512- yil topilgan.

Arab tili grammatik, fonetik va leksik va yana boshqa jihatlariga ko'ra ham go'zal tildir. Buni quyida keladigan jumla misolida yana bir bor ko'rishimiz mumkin:

سُئِلَ حَكِيمٌ:  
- مَنَ أَسْعَدُ النَّاسَ؟

فَقَالَ:  
- مَنَ أَسْعَدَ النَّاسَ.

Bir donishmanddan so'radilar:

- Odamlarning eng baxtlisi kim?

U dedi:

- Odamlarni kim hursand qilsa- o'sha.

Ushbu suhbatda Donishmanddan qisqagina savol so'rashadi . Donishmand esa shu savolda ishtirok etga so'zlarni o'zi bilan chiroyli javob beradi. Arab grammatikasiga ko'ra so'zlardagi oxirgi harakatlarga o'zgaradi ,xolos. Uning javobi qisqa va lo'nda bo'lgan. Bunday mahurat faqat til olimlaridagina sodir bo'lishi mumkin. So'zlarni tahlil qilsak:

**سئِلَ** (= so'raldi) o'tgan zamondagi **تَشْتَعِمُ** fe'l. Bu fe'l fat'hasi bilan mabniydir (uning oxirida fat'ha bor).

**حَكِيمٌ** (= donishmand) Majhul fe'lning noib foili bo'lib, dammasi bilan mabniydir (uning oxirida damma bor).

**مَنْ** (= Kim?) — Sukuniga mabniy so'roq ot. Buni ismi istifhom deyiladi va hozir bu kalima o'zidan keyin kelayotgan **أَسْعَدُ** **mubtado-ega uchun kechikib kelgan xabardir.**

**أَسْعَدُ** (=eng baxtli) ism tafzil bo'lib, dammasiga Mabniy hisoblanadi (uning oxirida Damma bor).

**النَّاسِ** (= odamlar) - kasra bilan majrur bo'lyapti , **أَسْعَدُ** - **muzof** , **النَّاسِ** - **muzofun ilayhidir.**

**قَالَ** (= Bas, dedi) **فَقَالَ** fe'li fat'ha bilan mabniy bo'lgan o'tgan zamon fe'lidir. Fe'lning foili ko'rinmas ya'ni mustatir (uchinchi shaxs ) olmoshi (**u**) bo'lib, u donoishmandga ishora qiladi.

**مَنْ** (= Kim) - Sukuniga mabniy bo'lgan olmoshdir. Shuningdek, u ega o'rnida kelmoqda.

**أَسْعَدَ** (= birovni xursand qiladi) – fat'hasiga mabniy bo'lgan o'tgan zamon fe'li . Bu fe'lning foili, ya'ni bajaruvchisi- bo'lgan olmoshdir (**u**).

**النَّاسِ** (= odamlar) fe'lning (**ʾas-ada**) maf'ulun bihisi, to'ldiruvchisidir. Va u fat'ha bilan (uning oxirida fat'ha bor) mansub hisoblanadi.

Bu javobni quyidagicha ham berish mumkin edi:

- **Odamlarning eng baxtlisi bu- odamlarni baxtli qiladigan kishidir**

أَسْعَدُ النَّاسِ هُوَ مَنْ أَسْعَدَ النَّاسَ

**Yoki:**

مَنْ أَسْعَدَ النَّاسِ هُوَ أَسْعَدُ النَّاسِ.

**Odamlarni baxtli qiladigan kishi barcha odamlardan eng baxtlidir.**

Shunday , arab tili hatto o'rganish qiyin tuyuladigan grammatikasi jihatidan ham o'ziga jalb qila oladigan darajadagi qiziqarli tildir. Bu til o'rganishni boshlagan tolibi ilmini o'zi bilan uzoq yo'lga olib chiqadigan va bu yo'lda unga ajoyib , chiroyli natijalar baxsh etuvchi lisonidir.

Arab tilida shunday sinonimlar borki, ularda har bir soʻz maʼlum shartlariga koʻra sinonim boʻladi, masalan:

الكأس bilan القدر soʻzi sinonimdir. Lekin, ichida ichimlik boʻlmasa الكأس , emas , القدر deyiladi.

Agar uning ustida narsalar boʻlmasa dasturxonni المائدة deyilmaydi , balki الخوان deyiladi.

Бог- الحديقة, deb devori mavjud boʻlganni aytiladi, aks holda unday joyni بستان deyiladi.

Arab tilining ajabtovur jihatlaridan biri Kaf harfi bilan Qof harfi bir soʻzda uchrashmaydi, goʻyo arab tilidagi Kaf harfi bilan Qof harfi oʻrtasida qattiq dushmanlik bordek.

Arab tilidagi soʻzlar soni takrorsiz qoʻllanishi 12 302 912 soʻzni tashkil etadi.

Yaʼni, ingliz tilidagi soʻzlar sonidan 20 barobardan ortiq, chunki ingliz tilida 600 ming soʻz mavjud va bu lingvistik koʻrsatkich arab tilining boshqa tillarga nisbatan boyligidan dalolat beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Халидов Б.З., «Учебник арабского языка», Ташкент, «Ўқитувчи», 1985 г.
2. Ковалев А.А., Шарбатов Г.Ш. «Учебник арабского языка», Москва, «Восточная литература» РАН, 1998 г.
3. Н.И. Иброҳимов, М. Юсупов “Араб тилиграмматикаси”, 1,2 жилдлар, Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 1997-2002 йиллар
4. Абдужабборов А. «Араб тили дарслиги», Тошкент, 2007;
5. Гранде Б.М., «Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении», Москва, «Восточная литература» РАН, 1998 г. 6. Баранов Х.К. «Арабско русский словарь», Москва 2005 г.